



Talabalarga ingliz tili nazariy kursini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanishning metodik asoslari

Tursunova Shohsanam Botirjon qizi –
Farg'ona Davlat Universiteti Tayanch doktoranti
E-mail: Tursunovulugbek2023@gmail.com
ORCID: <https://orcid.org/0009-0009-0542-2986>

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilariga ingliz tili nazariy kurslarini (nazariy grammatika, fonetika, leksikologiya, stilistika) o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanishning metodik asoslari tahlil qilinadi. Zamonaviy lingvodidaktik yondashuvlar nuqtai nazaridan talaba markazli ta'limning ahamiyati va interfaol metodlarning talabalarda lingvistik, kommunikativ hamda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi o'rni asoslab beriladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, "Aqliy hujum", "Think-Pair-Share", "Case Study", "Munozara" va "Concept Mapping" kabi metodlar nazariy bilimlarni chuqur o'zlashtirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ingliz tili nazariy kursi, lingvodidaktika, interfaol metodlar, kompetensiyaviy yondashuv, kasbiy kompetensiya, bo'lajak o'qituvchi.

Методические основы использования интерактивных методов при преподавании теоретического курса английского языка студентам

Аннотация. В данной статье анализируются методические основы использования интерактивных методов в процессе обучения теоретическим курсам английского языка (теоретическая грамматика, фонетика, лексикология, стилистика) будущих учителей английского языка. С точки зрения современных лингводидактических подходов обосновывается важность студентоцентрированного обучения и роль интерактивных методов в развитии лингвистических, коммуникативных и профессиональных компетенций студентов. Согласно результатам исследования, такие методы, как "Мозговой штурм", "Think-Pair-Share", "Case Study", "Дебаты" и "Concept Mapping", служат углублению усвоения теоретических знаний, развитию критического мышления и повышению качества профессиональной подготовки.

Ключевые слова: теоретический курс английского языка, лингводидактика, интерактивные методы, компетентностный подход, профессиональная компетенция, будущий учитель.

Methodological foundations of using interactive methods in teaching the theoretical course of english to students

Annotation. *This article analyzes the methodical foundations of using interactive methods in teaching theoretical English courses (theoretical grammar, phonetics, lexicology, stylistics) to future English language teachers. From the perspective of modern linguodidactic approaches, the importance of student-centered learning and the role of interactive methods in developing students' linguistic, communicative, and professional competencies are substantiated. According to the research results, methods such as "Brainstorming", "Think-Pair-Share", "Case Study", "Debate", and "Concept Mapping" serve to deepen the mastery of theoretical knowledge, develop critical thinking, and improve the quality of professional training.*

Keywords: *theoretical English course, linguodidactics, interactive methods, competence approach, professional competence, future teacher.*

KIRISH

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash tizimida nazariy kurslar (nazariy grammatika, nazariy fonetika, leksikologiya, stilistika, til tarixi va tilshunoslikka kirish) fundamental bazasini tashkil etadi. J.Richards, T.Rodgers va H.D.Brown kabi olimlarning ta'kidlashicha, chet tili o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi nafaqat amaliy ko'nikmalarga, balki chuqur nazariy bilimlarga ham tayanishi lozim, chunki metodik jihatdan to'g'ri shakllangan nazariy bilimlar amaliy nutqiy kompetensiyaning asosi va filologik tafakkurning manbai bo'lib xizmat qiladi. Biroq, bugungi kunda oily ta'lim amaliyotida an'anaviy ma'ruza shaklidagi ta'lim tizimi talabalarni asosan passiv tinglovchi sifatida qoldirmoqda, bu esa talabalarga murakkab nazariy tushunchalarni tizimli idrok etish, ularni amaliy nutqiy materialda tahlil qilish va en asosiysi- kelajakdagi pedogogik faoliyatiga tadbiiq etishda jiddiy qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Nazriy ma'lumotlarning quruq yodlanishi (rote learning) talabaning lingivistik va metodik kompetensiyalarining o'sishini cheklaydi. Shu sababli zamonaviy lingvodidaktikada shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuv asosida interfaol metodlardan samarali foydalanish, dars jarayonini talaba faolligiga qurish masalasi dolzarb ilmiy-metodik muammo hisoblanadi. Nazariy darslarda "lingvotechnology" kontsepsiyasini to'g'ri joriy qilish, ya'ni talabalarning nutqiy-lingivistik kompetensiyalarini tasviriy -ifodali vositalar (figurative-language) va interfaol topshiriqlar tizimi orqali rivojlantirish pedogogik innovatsiyalarning asosi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot jarayonida ingliz tili nazariy kurslarining (leksikologiya va stilistika) o'ziga xos mavhum va murakkab tabiati hisobga olingan holda, quyidagi interfaol metodlar tizimi shakllantirildi va mashg'ulot jarayonlariga integratsiya qilindi:

Aqliy hujum (Brainstorming): Yangi nazariy mavzuni boshlashdan oldin talabalarning tayanch bilimlarini faollashtirish uchun qo'llanildi. Masalan, "Leksikologiya" fanida "Metonimiya nima?" yoki "Metaforaning tabiatda tutgan o'rni" kabi muammoli savollar atrofida talabalarning erkin fikrlashi rag'batlantirildi.

Think-Pair-Share (O'yla-Juftlash-O'rtoqlash): Talabalarda mustaqil tahlil qilish ko'nikmasini oshirish maqsadida qo'llanildi. Har bir talaba dastlab nazariy qoidani individual o'rganadi, keyin uni juftlikda muhokama qiladi va yakunda butun guruh bilan o'z xulosalarini o'rtoqlashadi.

Case Study (Vaziyatli tahlil): Real lingvistik yoki matniy muammolarni hal qilishga qaratilgan. Stilistika darslarida badiiy matnlar tarkibidagi ko'chimlar va stilistik figuralarning (metaphors, idioms, irony) pragmatic funksiyalarini aniqlash bo'yicha maxsus keyslar ishlab chiqildi.

Munozara (Debate): Qarama-qarshi ilmiy nazariyalarni tahlil qilishda ishlatildi. Masalan, "Til tizimidagi o'zgarishlar: ichki qonuniyatlar natijasimi yoki tashqi ekstralingvistik omillar ta'sirimi?" mavzusida talabalar ikki guruhga bo'lingan holda o'z ilmiy pozitsiyalarini ingliz tilida, akademik dalillar bilan himoya qildilar.


Concept Mapping (Tushunchalar xaritasi) va Klaster: Murakkab va ko'p tarmoqli nazariy ma'lumotlarni grafik va vizual ko'rinishda tizimlashtirish, mantiqiy bog'liqliklarni o'rnatish uchun xizmat qildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'tkazilgan metodik tajriba-sinov ishlari va darslar tahlili shuni ko'rsatdiki, interfaol metodlar nazariy tushunchalarni quruq yodlashdan qutqarib, ularni vizuallashtirish va amaliy misollar bilan mustahkam bog'lash imkonini beradi.

Xususan, Leksikologiya va Stilistika fanlarini o'qitishda quyidagi natijalarga erishildi:

Baholash mezonlari (Kompetensiyalar)



"Concept Mapping" va "Klaster" metodlari orqali "Figurative Language" (Metaphor, Simile, Hyperbole, Personification, Irony) hamda "Word Formation" (Affixation, Conversion, Compounding) kabi talabalar tushunishi qiyin bo'lgan tizimli mavzular grafik sxemalarga keltirildi. Natijada, talabalarda mavzularni mexanik yodlash ko'rsatkichi pasayib, mavhum tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy iyerarxiyani vizual anglash darajasi ko'tarildi. "Case Study" metodida talabalarga lingvistik muammo sifatida taqdim etilgan kontekstual misollar (masalan, "The wind whispered through the trees" jumlasini tahlili) o'rganildi. Talabalar ushbu ifodada personifikatsiya (personification) hodisasi qaysi semantik ko'chishlar hisobiga yuzaga kelganini shunchaki aytib bermasdan, uni leksik-semantik tomondan ilmiy asoslash ko'nikmasini namoyish etdilar. Tadqiqot davomida talabalarning nazariy materialni o'zlashtirish va amaliyotda qo'llash darajasi interfaol metodlar joriy qilinishidan oldin va keyin (an'anaviy guruh va interfaol guruh misolida) tahlil qilinganda quyidagi ijobiy dinamika kuzatildi: Ushbu jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatdiki, an'anaviy ta'lim olgan talabalarda nazariyani amaliyotga bog'lash va tadqiqotchilik ko'nikmalari past darajada qolayotgan bir paytda, interfaol metodlar qo'llanilgan guruhlarda sezilarli o'sish qayd etildi. Nazariy kurslarda interfaol metodlarni tizimli qo'llash nafaqat joriy fandan bilimlarni o'zlashtirish darajasini oshiradi, balki

talabalarda bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi uchun professional faoliyatda zarur bo'lgan beshta tayanch kasbiy kompetensiyani kompleks ravishda rivojlantiradi: Talaba til hodisalarini faqat til qoidasi sifatida emas, balki chuqur ilmiy tahlil qilish (conceptual analysis, rule application) darajasida o'rganadi. Nazariy muammolarni ingliz tilida o'zaro muhokama qilish jarayonida o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda aniq, akademik tilda ifodalash (public speaking, active listening) ko'nikmasi shakllanadi. Talabalar o'zlari ishtirok etgan interfaol metodlarni ("Think-Pair-Share", "Case Study") kuzatish orqali kelajakda maktab yoki litseydagi darslarida qanday qilib zamonaviy va talaba markazli (student-centered learning) strategiyalarni qo'llash mumkinligini amalda o'rganadilar. "Munozara" va "Case Study" topshiriqlari jarayonida talabalarda ilmiy muammolarni mustaqil aniqlash, ma'lumotlar to'plash (data gathering), tanqidiy baholash va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish qobiliyati yuksaladi. Talaba dars yakunida o'z faoliyatini va guruhdoshlarining natijalarini xolis va tanqidiy baholashni (self-assessment, constructive feedback), o'z ustida uzluksiz ishlash (lifelong learning) ko'nikmalarini egallaydi. An'anaviy ma'ruzalardan farqli o'laroq, biz tomonimizdan taklif etilgan ushbu yondashuv L.Vygotsky va J.Harmer kabi taniqli olimlar tomonidan ilgari surilgan hamkorlikda o'rganish (collaborative learning), ijtimoiy konstruktivizm hamda faol ta'lim tamoyillariga to'liq mos keladi. Vygotskyning "Yaqin rivojlanish zonasi" (Zone of Proximal Development) nazariyasiga ko'ra, talabalar murakkab lingvistik tushunchalarni o'qituvchining quruq ma'ruzasidan ko'ra, o'z tengdoshlari bilan interfaol muloqot va hamkorlikdagi muammoli topshiriqlar jarayonida ancha tez va chuqurroq o'zlashtiradilar.

XULOSA

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilariga oliy ta'limda ingliz tili nazariy kurslarini o'qitishda interfaol metodlar shunchaki darsni qiziqarli o'tkazish vositasi emas, balki ularning kasbiy professional kompetensiyalarini shakllantiruvchi samarali metodik mexanizmdir. "Concept Mapping", "Case Study" va "Munozara" kabi interfaol metodlar talabalarni passivlikdan faollikka olib o'tadi, ularning vizual va lingvistik tafakkurini rivojlantiradi hamda quruq yodlash (rote learning) an'anasiga barham beradi. Eng muhimi, ushbu metodlar nazariy bilimlarni bevosita kelajakdagi amaliy pedagogik va tadqiqotchilik faoliyati bilan integratsiyalash orqali bo'lajak mutaxassislarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini va kasbiy tayyorgarlik sifatini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Brown, H. D. Principles of Language Learning and Teaching. 6th ed. – Harlow: Pearson Education, 2014. – 398 p.
2. Galperin, I. R. Stylistics. – Moscow: Higher School Publishing House, 1977. – 334 p.
3. Harmer, J. The Practice of English Language Teaching. 5th ed. – Harlow: Pearson Education Limited, 2015. – 446 p.
4. Johnson, D. W., Johnson, R. T., Smith, K. A. Active Learning: Cooperation in the College Classroom. 4th ed. – Edina, MN: Interaction Book Company, 2014. – 403 p.
5. Leech, G., Short, M. Style in Fiction: A Linguistic Introduction to English Fictional Prose. 2nd ed. – Harlow: Pearson Education, 2007. – 404 p.
6. Nunan, D. Language Teaching Methodology: A Textbook for Teachers. – New York: Prentice Hall International, 1991. – 320 p.
7. Richards, J. C. Curriculum Development in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 320 p.
8. Richards, J. C., Rodgers, T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – 410 p.